



# Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

---

## AKADEMIK ERKINLIK SIYOSATI

Toshkent-2024

**JUDUNing 2024-yil 26-dekabrda navbatdagi Akademik kengash majlisining  
2024/2025 – № 4-sonli bayyonnomasining 4A-5-E – ilovasi**

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI  
AKADEMIK ERKINLIK SIYOSATI**

**DEBOCHA**

Ushbu strategiya barcha fakultetlarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish va joriy etishga, shuningdek, Jhon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet / JIDU) yetakchi tadqiqotchilar hamjamiyatini yaratishga qaratilgan. Mazkur Strategiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldag“Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-sun qaroriga muvofiq Xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik va jahon iqtisodiyoti tizimini rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etish, ilmiy islohotlarning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, yuqori malakali diplomatlar tayyorlash va ilmiy infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Mazkur Strategiya Jhon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining katta ilmiy xodimlari, kichik ilmiy xodimlari uchun akademik erkinlik va ilmiy izlanishlar erkinligini, shuningdek, fakultetlar, kafedralar, Ilg‘or xalqaro tadqiqotlar instituti va Diplomatik akademiyasi rejasiga muvofiq Jhon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining katta o‘qituvchilari va o‘qituvchilari uchun dars berish erkinligini kafolatlaydi.

Ushbu strategiya akademik erkinlikni mustahkamlash va innovatsion amaliyotlarni takomillashtirish, shuningdek, dolzarb mavzulardagi tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu sa’y-harakatlar o‘qitish sifatini oshirish, ilmiy izlanishlar olib borish, innovatsiyalar yaratish, ularni amaliyotda qo‘llash, mamlakatimiz tashqi siyosati va iqtisodiy faoliyati sohasidagi bilimlarni ommalashtirish va ulardan foydalanishga yo‘naltirilgan. Pirovard maqsad diplomatik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va zaxirasini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirishdan iborat.

JIDUNing akademik erkinligi inson huquqlari va ta’lim faoliyati tamoyillari sohasidagi xalqaro standartlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining quyidagi konstitutsiyaviy va milliy qonunchiligi bilan himoyalangan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik, tashkiliy va boshqaruv mustaqilligini ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagagi “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonining ochiqligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

JIDU o‘z faoliyatining asosiy tamoyili sifatida akademik erkinlikni e’lon qiladi, intellektual va dinamik rivojlanish, fikrlash va o‘zini ifoda etish erkinligi kontekstida bilim va ilmiy izlanishlarga intilish uchun qulay muhit yaratadi.

## **I. AKADEMIK ERKINLIKNING TA’RIFI**

Akademik erkinlik - bilim olish va g’oyalarni rivojlantirish huquqi. Akademik erkinlik xalqaro va milliy inson huquqlari qonunlari bilan himoyalangan. Akademik erkinlik barcha darajadagi ta’lim jarayonining muhim shartidir. JIDU Akademik erkinlik strategiyasi akademik hamjamiyatning barcha a’zolari uchun akademik erkinlikni qo’llab-quvvatlash va saqlashga o‘zining doimiy sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Akademik erkinlikni himoya qilish umumiy mas’uliyatdir.

JIDU akademik erkinligi – bu akademik hamjamiyat a’zolarining tadqiqot, o‘qitish, o‘rganish va fikr almashish orqali turli bilim va g’oyalarni egallash, kengaytirish, uzatish va ulardan foydalanish huquqidir.

## **II. AKADEMIK ERKINLIKNI TATBIQ ETISH SOHASI**

JIDU inkyuzivlikni kafolatlaydi hamda mafkura, metodologiya yoki predmetdan qat’i nazar, tashqi siyosat, tashqi iqtisodiyot va xalqaro huquq sohasidagi barcha o‘quv fanlari va tadqiqot yo‘nalishlarini qamrab oladi.

JIDU akademik avtonomiyaning ajralmas elementlari bo‘lgan tadqiqot, o‘qitish va muhokama qilish erkinligi, erkin fikr yuritish, tadqiqot natijalarini nashr etish va tarqatish erkinligi tamoyiliga amal qiladi.

JIDU akademik erkinlikni himoya qilish, uning faoliyati va axloqining ajralmas qismi bo‘lishini ta’minlashda ko‘p qirrali yondashuvni qo’llaydi:

*Qonunchilik kafolatlari:*

– Akademik erkinlik inson huquqlari xalqaro standartlari, konstitutsiyaviy qoidalar va O‘zbekiston milliy qonunchiligi, jumladan, rektor farmoyishlari va JIDU nizomlariga asoslanadi va himoya qilinadi.

*Institutsional siyosat va jarayonlar:*

– akademik erkinlikning mumkin bo‘lgan buzilishi haqidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqishning aniq va shaffof mexanizmlari mavjud;

– institutsional avtonomiya tadqiqot, o‘quv va akademik mazmunga oid qarorlar tashqi bosimga duchor bo‘lmasligini ta’minlaydi;

– Etika va nazorat qo‘mitasi axloq me’yorlariga rioya etilishini nazorat qiladi va shikoyatlarni o‘rganadi.

*Imkoniyatlarni rivojlantirish va xabardorlik:*

– o‘qituvchilar, talabalar va ma’muriy xodimlarning akademik erkinlik bo‘yicha huquq va majburiyatlari to‘g’risida xabardorligini oshirish maqsadida muntazam ravishda mahorat darslari, seminarlar va o‘quv dasturlari o‘tkaziladi;

– xalqaro institutlar bilan hamkorlik akademik halollikni saqlash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni mustahkamlaydi, talabalar va xodimlarni turli qarashlar va e’tiqodlar bilan tanishtiradi hamda shaffoflikni ta’minlaydi.

### **III. MAS’ULIYAT VA MAJBURIYATLAR**

Akademik erkinlik nafaqat huquq, balki vijdonan ishlash uchun javobgarlik va majburiyatdir. Axloqiy tadqiqot amaliyotini rioya qilish, professional standartlarga muvofiqlik hamda boshqalarning huquqlari va nuqtai nazarlarini hurmat qilish bosh majburiyat hisoblanadi.

Akademik erkinlik kontekstida ijtimoiy mas’uliyat – bu mas’uliyatga binoan akademik erkinlik huquqini amalgaga oshirish, haqiqatni aniqlash av axloqiy va professional standartlarga muvofiq axborot tarqatish hamda jamiyat barcha a’zolarining dolzarb tashvishlari va ehtiyojlariga munosabat bildirish vazifasi.

Ilmiy-pedagogik xodimlar va talabalar jamoatchilik bilan muloqot qilish huquqiga va ijtimoiy mas’uliyatiga egadirlar. Ular ilmiy va o‘quv ishlarining mazmuni yoki ta’lim sohasida rivojlanayotgan ilmiy diskurs/nutq konteksti, shu jumladan, akademik va ilmiy bo‘lmagan nashrlar, ommaviy nutqlar, bosma va electron ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie, ko’rgazmalar, taqdimotlar va boshqa tadbirlar bilan bo‘lishadilar.

**Universitet rahbariyati:**

– institutsional avtonomiyanı qo‘llab-quvvatlaydi va akademik erkinlikni qo‘llab-quvvatlovchi siyosatni amalgaga oshiradi;

– akademik erkinlik bilan bog’liq nizolarning oldini olish va hal qilish uchun resurslar va mexanizmlarni taqdim etadi.

### **Fakultet va ilmiy xodimlar:**

- akademik etika va halollikning yuqori standartlariga rioya qiladilar;
- turli nuqtai nazarlarni hurmat qiladigan va intellektual izlanishni qo’llab-quvvatlaydigan madaniyatni yaratishda faol ishtirok etadilar.

### **Talabalar:**

- odob-axloqning akademik kodekslariga rioya qilgan holda, erkin izlanish va fikr bildirish huquqlaridan mas’uliyat bilan foydalanadilar;
- hamkorlik va hurmatga asoslangan akademik muhitni shakllantirishga ko‘mak beradilar.

### **Hukumat va nazorat qiluvchi organlar:**

- ta’lim muassasalarining avtonomiyasini hurmat qilgan holda akademik erkinlikni himoya qiluvchi qonunlarni qabul qiladilar va amalga oshiradilar;
- nazoratni amalga oshiradilar va faqat zarurat taqozo etganida kengroq huquqiy va axloqiy me’yorlarni saqlab qolish maqsadida unga aralashadilar.

### **Xalqaro hamkorlar:**

- JIDUni ilg‘or jahon tajribasiga muvofiq hamkorlik va almashinuv dasturlari orqali qo’llab-quvvatlaydilar;
- hisobdorlik va qo’llab-quvvatlash maqsadida tashqi me’yorlarini ta’minlaydilar.

## **IV. AKADEMIK ERKINLIKNI HIMOYA QILISH**

Akademik erkinlikni himoya qilish, shuningdek, ushbu jarayonlar tadqiqot va ta’lim muassasalari faoliyatining sharoitlari, xatti-harakatlari va siyosiy yo’nalishlariga taalluqli bo’ladi. Mazkur jarayonlar tadqiqot va ta’lim sektori yoki undan tashqarida, jumladan, jamoat sohasida sodir bo’ladimi, bir vaqtida tadqiqot va ta’lim muassasalarining sharoitlari, harakatlari yoki siyosati bilan bog’liq faoliyatni ham qamram oladi.

Agar akademik erkinlikka tahdid bo‘lsa, shikoyatlar maxsus Etika va nazorat qo‘mitasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Yechim vositachilik, buzilgan huquqlarni tiklash yoki tegishli intizomiylar choralarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Jiddiy qonunbuzarliklar milliy va xalqaro qonunchilikka muvofiq javobgarlikni ta’minlovchi tegishli organlarga yuborilishi mumkin.

Universitetda akademik erkinlikning buzilishi va boshqa tegishli nizolar bilan bog’liq shikoyatlarni ko‘rib chiqishning aniq va shaffof mexanizmi yaratilgan. Ushbu mexanizm quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

*Shikoyatlar:* Shikoyatlar uchun Etika va Nazorat qo‘mitasi mavjud bo‘lib, u barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiqlik va maxfiylikni ta’minlaydi.

*Ko‘rib chiqish va tekshirish:* Etika va nazorat qo‘mitasi shikoyatlarni zudlik bilan ko‘rib chiqadi va belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq har tomonlama tekshiruvlar o‘tkazadi.

*Qaror va fikr-mulohazalar:* Tekshiruvdan so‘ng qarorlar barcha manfaatdor tomonlarga aniq amalga oshirish muddatlari bilan shaffof tarzda etkaziladi.

*Apellyatsiya jarayoni:* Ariza beruvchilar adolat va xolislikni ta’minlaydigan mustaqil jarayon doirasida qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Ushbu tizimli yondashuv barcha shikoyatlar akademik erkinlik va institutsional yaxlitlikni qo‘llab-quvvatlaydigan tarzda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi.

JIDU va uning hamjamiyati akademik erkinlikni targ’ib qilish va uni ortiqcha tashqi bosim yoki tahdidlardan himoya qilish uchun jamoaviy mas’uliyatga ega.

Jabrlanuvchilar huquqbazarliklar natijasida etkazilgan har qanday zararni bartaraf etish uchun yordam, jumladan, konsultatsiyalar va yuridik maslahat oladilar.

## V. CHEKLOVLAR VA TAQIQLAR

JIDU ma’lumotlarga kirish, tarqatish va yaratish uchun cheksiz huquqni o‘z ichiga oladigan akademik erkinlikni qo‘llab-quvvatlaydi va himoya qiladi. Bu erkinlik intellektual fikrni to‘sinqilksiz rivojlantirish, turli bilimlarni egallash va ifodalash, shuningdek, ularni o‘z mutaxassisligi yoki ta’lim sohasi doirasida yoki birgalikda amaliy qo‘llashga taalluqlidir.

Akademik erkinlik asosiy tamoyildir, lekin u mutlaq emas. Ilmiy-tadqiqot va o‘quv ishlarining mazmunini, o‘quv rejalarini va materiallarini belgilash qoidalari va tartiblari senzuraga, tashqi aralashuvga va kansitishlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Akademik erkinlik qonunlar, qoidalari va shartnoma majburiyatlariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi kerak. Akademik erkinlikka nisbatan qo‘yilgan har qanday taqiqlar yoki cheklovlar xalqaro majburiatlarga mos kelishi kerak. Cheklovlar faqat O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanishi mumkin va ular boshqalarning huquqlari va obro‘sini hurmat qilish yoki milliy xavfsizlikni, jamoat tartibini, jamoat axloqini himoya qilish uchun zarur bo‘lishi kerak. Bu cheklovlar faqat shunday ko‘lamdagina demokratik jamiyatda umumiy farovonlikka hissa qo‘shadi.

Akademik erkinlikdan universitet faoliyatiga aralashish yoki o‘qish shartlarini buzish uchun foydalanmaslik kerak.

## **VI. AKADEMIK BOSHQARUV VA MUXTORIYAT**

Davlat, mansabdor shaxslar, davlat organlari va muassasalari, jumladan ilmiy, ta’lim faoliyatini tartibga solish va oliy ta’limni boshqarish uchun mas’ul vazirliklar, shuningdek, Universitet o‘z vakolatlari doirasida shaxsning huquq va erkinliklarini, shunindek, akademik erkinlikni ham zarur qonunchilik, ma’muriy va boshqa choralarni ko‘rish orqali ta’minlaydilar.

JIDU milliy va xalqaro miqyosda inson huquqlari va asosiy erkinliklari, jumladan, akademik erkinliklarga hurmat qilis tarbiyalash va bilimlarni kengaytirishga mas’uldir.

JIDU Fan va innovatsiyalar bo’limi akademik va tadqiqot erkinligini qo’llab-quvvatlash va himoya qilishga chaqiriladi. Qoidalar huquqiy va demokratik asosda, professor-o‘qituvchilar va talabalar kasaba uyushmalari, shuningdek, kasbiy jamoalarning boshqa vakillari bilan maslahatlashuvlar va muloqotlar yo‘li bilan belgilanadi.

JIDU O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq akademik erkinlikni ta’minlash va JIDUning tadqiqot va fikrlar erkinligi bo‘yicha majburiyatlariga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan tashqi bosimga qarshi turish uchun zarur bo‘lgan institutsional avtonomiyaning saqlanishini kafolatlaydi.

## **VII. XULOSA**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik hamjamiyatning fundamental tamal toshi sifatida akademik erkinlikka qat’iy sodiqdir va o‘z sa’y-harakatlarini hozirgi zamon kontekstida fan va oliy ta’limni rivojlantirishga yo’naltiradi. Ushbu siyosat JIDUning sa’y-harakatlari fikr xilma-xilligi, intellektual izlanish va bilimga intilish muhim o‘rin tutadigan muhitni yaratish bizning yondashuv ekanligini ta’kidlaydi. Ilm-fan, ta’lim va tarbiya - taraqqiyotning tamal toshi, bu yurt va xalq qudratini bir necha barobar oshiruvchi kuchdir.

“JIDUDA akademik erkinlik siyosati to‘g‘risida”gi ushbu Strategiya zamirida universitetda akademik erkinlikni himoya qilish va ilgari surishga mustahkam asos bo‘lib xizmat qilish yotadi. U JIDUning demokratiya va erkinlikning asosiy tamoyillariga sodiqligini kuchaytirib, faoliyatlarni yo‘naltiradi va akademik hamjamiyatning barcha a’zolari umidlarini belgilaydi.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik erkinlikning kuchli himoyachisi bo‘lib, uning gullab-yashnayotgan akademik hamjamiyatning tamal toshi sifatidagi rolini tan oladi. JIDU ochiq muloqotni targ‘ib qilish, intellektual avtonomiyani himoya qilish va mustahkam himoya choralarini tatbiq etish orqali ushbu tamoyillarning har qanday tahdidlarga chidamliliginini ta’minlashga intiladi.

Ushbu kengaytirilgan tizim JIDUning shaffoflik, adolatlilik tamoyillarini ta'minlash va doimiy takomillashtirishga sodiqligini ta'kidlagan holda JIDUning hozirgi davrda va kelajakda ham akademik erkinlikni himoya qilishga qodirligiga ishonchni shakllantiradi.